


“БУХОРО ШАШМАҚОМИ: ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ”

МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА
ИЛМИЙ АМАЛИЙ АНЖУМАН

МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ

2019 йил 25 февраль



Бухоро - 2019

Hozirgi davr talabi-tez o'zgaruvchan murakkab hamda o'zaro bir-biriga bog'liq dunyoda o'z o'zini topa oladigan shaxsni tarbiyalashdir.

MUSIQA DARSLARIDA OBRAZLI TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA FANLARNING ROLI

H. Hasanov, BuxDU o'qituvchisi

Musiqa darslarida obrazli tafakkurni shakllantirishda tarix adabiyot fanlarini ahamiyati beqiyosdir. Musiqa asari mazmunining estetik va axloqiy muammolarini yoritadigan tasvirlash va adabiyot sohasidagi turli ijodiy topshiriqlarni bajarish uchun ijrochilik faoliyatida fikrlash jarayoning roliga jiddiy e'tibor berish juda muhimdir. Tafakkur - bevosita bilish, inson ruhiy faoliyati jarayonlaridan biri bo'lib, u voqelikni faqat aks ettirib qolmay, uni uzgartirishi va yangi voqelikni vujudga keltirishi ham mumkin.

Musiqaviy tafakkurning uziga xos tili mavjud bo'lib, amaliy faoliyat bazasida inson tili va musiqaviy kechinma bilan bevosita bog'liq holda rivojlanadi va takomillashadi. Qator musiqachilarning ijrochilik faoliyatidan, pedagogik ish tajribalaridan ma'lumki, musiqa asarining mazmuni obrazli tafakkur va yozilgan narsalarni gavdalashtirish orqali yoritiladi. Musiqa - emotsionallashgan tafakkur sohasidir. Shunga ko'ra musiqa faoliyatidagi «obrazli tafakkur» degan tushuncha tovushlar va emotsional munosabatni va uning mazmunidan ta'sirlanishini anglatadi.

O'quvchilarda obrazli tafakkurni, badiiy faollikni muntazam va maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirish ujar bilan boshqacha metodika asosida mashg'ulotlar olib borishini taqozo etadi.

Nota matnining o'zlashtirishning murakkabligi emotsional ta'sir jarayoniga, o'quvchilarning badiiy kamolotiga mone'lik qilishi mumkin. Shuning uchun o'quvchilarni nota teksti bilan tanishish paytidayoq, fikr yuritishiga odatlantirish notaning keyingi xolatlarini ko'rishga o'rganish pedagogikaning muhim vazifasidir. Har qanday musiqa asarini ijro etishda aniq maqsad bo'lishi shart. Ijrochi quyi sinf o'quvchisi ekanidan qat'iy nazar musiqa asarini ijro etish uchun uni tushunish, faxmlash va notalashning jonlashtirish yo'li bilan ya'ni ijrochi notaga sof individual, yakka tarzda yondashishi, uni o'zini qilib olishi, asardan boshqa kishining umumiy fikrlarini chiqarib tashlab unga o'z g'oyalarini kiritish lozimki, bu axloqiy muammo bo'lib shaxsda muayyan axloqiy sifatlarni tarbiyalashning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Asarni o'zini qilib olish kuyni o'quvchining uziga tashlab kuyish degan so'z emas, aksincha o'quvchida kuyga ijobiy munosabatni tarkib toptirishi, unga badiiy ijro bo'yicha o'qituvchi tomonidan yordam berilish, shu orqali o'quvchini shaxs sifatida shakllantirish demakdir. O'quvchilar musiqa asbobi bilan bo'ladigan har bir mashg'ulot o'zlari uchun ijodkorlikka yo'l ochishni unutmasligi lozim.

Musiqaviy-badiiy fikrlashga tayyorlikning tarkib topishi har qanday musiqa asbobini chalib ko'rishdan oldin boshlanish obrazli tafakkur musiqa asbobida chalish texnikasi takomillashuvidan ilgari shakllanishi lozim. O'quvchining badiiy aktivligi va obrazli tafakkuri boshqa musiqa predmetlarini hamda musiqa asbobida chalish texnikasida o'zlashtirish bilan birga muntazam ravishda rivojlanib borishi kerak. Obrazli tafakkurning shakli xilma-xildir. Masalan, bitta musiqa asarining o'zi bir o'quvchining ko'z o'ngida ayrim rang tusini ikkinchi o'quvchining tasavvurida tabiat hodisalarining, uchinchi o'quvchining hayotida ertak yoki kitob mazmunini gavdalashtirishi mumkin.

O'quvchilarda umumlashgan obrazning vujudga kelishi uchun o'qituvchi ulardan o'zlarining kuylaridan olgan taassurotlarini rasm orqali ifodalab berishlarini tavsif etish ham maqsadga muvofiq. Lekin bunda o'quvchilar umumiy pedagogik qoidani saqlashlari: davr tasvirini, kompozitorning hayot yo'lini, asarning janr xususiyatlarni bilishlari, ritm, dinamika intanatsiya va boshqa ijrochilik vositalarini akustik ko'rsata olishi kerak.

O'quvchilarning musiqa asaridagi emotsional mazmunni rasmda qanchalik aks ettira olgani, ular bajargan ishini baholashning mezonini hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni har tomonlama garmonik rivojlanishida maktabda o'qitiladigan barcha fanlar qatori san'atning tarkibiy qismi bo'lmish musiqa madaniyati darslarining ahamiyati juda kattadir. Chunonchi, musiqa inson his-tuyg'ularini orzu-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining hissiyotlariga faol ta'sir qiladi.

MUSIQIY-NAZARIY BILIMLARNI O'ZLASHTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

N. Hasanova

Jizzax davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Bugungi kunda ta'lim sohasida ilg'or pedagogik innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish keng ommalashib bormoqda. Ta'lim subyektlari o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhining dars materialini muvofiqiyatli o'zlashtirish yuzasidan hamkorlik, qizg'in bahs munozarali, o'zaro fikr almashish alohida tashkil etiladigan didaktik o'yinlar ilg'or pedagogik va interfaol metodlarning mazmunini tashkil etadi bu metodlar o'quvchilarda erkin fikrlash, shaxsiy qarash va mulohaza, fikr hamda o'tilayotgan, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarini bayon qilish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birga izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda hamjihatlilikka erishish. "o'qituvchi-o'quvchi-o'quvchilar guruhi"ning o'zaro fikrlashish, tahlil qilish umumlashtirish yakuniy xulosaga kelish, shu jarayonda bir-birlarini fikrlarini qo'llab-quvvatlashlari bilan tavsiflanadi.

Musiq a darslarida nazariy bilimlarni o'zlashtirishda interfaol ta'limning "baha munozara", "muammoli vaziyat", "doira stol atrofida", trening, "voqea tahlil", "o'yla izla top", "buni topingchi", "davom ettir", kabilar didaktik o'yinlardan foydalanish ta'lim samaradorligiga erishishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

"Aqliy hujum", "Bilits so'rov", "Bumerang", "Klasster", "Debat", "Muloqot texnologiyasi" kabi texnologiyalar o'qituvchining noan'anaviy usullari sirasiga kiradi. Bundan tashqari "6x6", "Zig-zag strategiyasi", "Integratsiyalshgan dars usuli", "Boshqotirma usuli" kabi didaktik metodlardan ham o'z o'rnida foydalanish nazariy bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilarni mustaqil fikrlash va hamkorlikda qaror qabul qilish, zukkolik, topqirlik, o'zgalar fikrini eshitish, hurmat qilish, ayni o'zining fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

Hozirgi kunda ta'lim alohida yo'nalish sifatida trening uslubi keng qo'llanilmoqda. Ta'lim metodi sifatida rivoj topib, ommalashib borayotgan trening, uning qo'llanilish uslubi o'zining tashkiliy, uslubiy va mazmun mohiyatiga ko'ra ta'lim va tarbiya sohasida treninglarni qanday tartibda tashkil etilishi va o'tkazilishi borasida masala o'ziga xos pedagogik izlanish va mahoratni talab etadi. Trening o'tkazishning maqsadi o'quvchilarni dars jarayonida muayyan mummoning yechimi borasida tabiiy erkin fikrlash, mushohada yuritish, o'z guruhi va undan tashqarida o'zaro munosabatga kirisha olish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Demak, trening o'quvchidagi mavjud bilim ko'nikma va malakalarini o'yin va mashqlar orqali o'tkaziladigan majmuidir. Treninglarning yetakchi xususiyatlaridan biri bu guruhlar bilan ishlashdir. Musiq a ta'limida bunday darslarning o'tkazilishiga bir qator misollarni keltirib o'tamiz.

1. "Doira stol atrofida" Sinf o'quvchilari bir necha guruhga bo'lingan holda doira shaklida o'tiradilar. Bunday o'tirish bir guruhga jamiangan o'quvchilarni bir-birtarini yaqindan ko'rib turishlari va erkin muloqat qilishlariga qulay vaziyatni vujudga keltiradi. Bu o'z navbatida ishtirokchilarda o'zaro ishonch, qiziqish, diqqat, bir-birini eshitish kabi xususiyatlarni vujudga keltiradi. Shuningdek, boshlovchi va ishtirokchilar orasida erkin muloqot qilish imkoniyatini yaratadi.

Trening qoidalari:

1. Musiq a xarakterini anglash.
2. Musiq a ga mos kayfiyatni vujudga keltirish.
3. Musiq a ga baho berish, o'z munosabatini bildir a olish ko'nikmasini shakllantirish.
4. Musiq ni ongli idrok etish – emotsional his etish, qilish g'oyaviy- badiiy mazmuni, shakli, harakteri, janriy xususiyatlari, g'oyaviy-badiiy mazmunini anglash.
5. Taassurotlarini umumlashtirib, xulosaviy firga kelish.
6. Sinf, sinfda o'tiladigan o'quv materiallari, o'quvchilarning individual qobiliyati, tayyorgarlik, o'zlashtirish darslarini inobatga olish.

Trening asosan musiqiy-nazariy bilimlarni mustahkamlash o'quvchilarni bilimlarini tekshirish maqsadida tashkil etiladi. O'quvchilar guruhlar (Jamo a) ga bo'linadilar. o'qituvchi maxsus tayyorlangan konvertlarda savollarni qator qilib terib qo'yadi. Jamoa sardorlari galma-gal konvertlarni tanlaydilar jamoa bilan kelishgan holda javob beradilar. Har bir savolga tayyorlanish uchun vaqt beriladi. Eng ko'p bal to'plagan jamoa g'olib deb topiladi va rag'batlantiriladi.

"Eslab qol" trening mashg'uloti o'quvchilariga musiq a asariga oid terminlar nomi mualliflari, mavzuga oid savollar tayyorlab qo'yiladi.

- asar nomi; -asar mualliflari; -asar janri; -harakteri; -o'lchovi; -asarda uchraydigan dinamik belgilar nomi;
- repriza; -volta; -qanday ijrochilik shakli uchun mo'ljallanganligi;
- yakka, ko'pnavozlilik.

O'quvchilar atamalarni adashmasdan to'g'ri va aniq aytib berishlariga qarab ballik tizimda yoki achkolar hisobi natijalariga ko'ra baholanadilar.

"Bu kim?" trening mashg'uloti.

Maqsad o'quvchilarda topqirlik, fikrlarni erkin bayon etish, xotirlash, yodga tushirish kabi xususiyatlarni rivojlantrish.

Turli kompazitor, bastakorlar mashhur xalq xofizlari san'atkorlar rasmlari o'quvchilarga ko'rsatiladi va ularning ismi sharifi, yozgan asarlari haqida ma'lumotlar so'raladi. Bunda o'quvchilarni guruhlariga bo'lish, navbatma-navbat surat-kartochkalarni ko'rsatish va to'g'ri topgani uchun tegishli ballarni qo'yib boorish va o'yin oxirida eng ko'p ball to'plagan guruhni g'olib deb e'lon qilish va rag'batlantirish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda musiq a nazariyasiga oid treninglarni "Bu qanday belgi" deb nomlanishda o'tkazish mumkin. Rasm kortochkalarda nota yozuvi bilan bog'liq belgilar ko'rsatilishi mumkin. "Bu qaysi nota" nomlanilishda nota tovushlarining nota chizig'iga yozilish o'rniga qarab nomini aniqlash, cho'zimini aniqlash maqsad qilib qo'yiladi. Bu o'quvchilarda kata qiziqish uyg'otadi va albatta dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. D. Soipova. Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini o'zlashtirish jarayonini takomillashtirishi. -Toshkent, Fan va texnologiya markazi bosmaxonasi 2006-yil
2. Oripova S. Psixologik treninglar uslubiy qo'llanma. Namangan 2014yil.
3. G. Sharipova Musiq a o'qitish metodikasi
4. A. Hasanov. Musiq a va tarbiya. - Toshkent: O'qituvchi, 1993.

МУНДАРИЖА

Абдуқобил Тўлаганов. Шашмаком юртига эхтиром	4
1-ШҲҲБА	5
Отаназар Матяқубов. Шашмаком тарихига бир назар	5
Файзулла Тўраев. Шашмакомхон устоз.....	9
Б. Х. Мадримов. Бухоро вилоятида маком санъатини янада ривожлантириш ва унинг тарғиботи ҳақида	10
Б. Ашуров. Бухоро шашмакоми ўзбек мақомоти тизимида	13
Б.М.Рахимов. Шашмаком тамойилларни Хоразмда қарор топиши.....	14
Р.Болтаев. Ўзбек мақомотининг нодир манбаси.....	15
Ш. Рўзиев, С. Муродов. Хор санъатини замонга мос ривожлантириш лозим	16
N. Nurullayeva. Maqom – o'zbek mumtoz musiqasi durdonasi.....	17
E. Qudratova. Mumtoz musiqa madaniyatimizni o'rganish yo'llari.....	17
Саид Болта-Зода Саидий. Мозий садоларидан таралган усуллар семантикаси	18
Н. Манарипова. “Шашмаком” ёш авлодда ўзлик ҳиссини шакллантириш манбаи	20
У. Миршаев. Ўзбек мақомларида хазрат Навоий ғазаллари.....	21
В. Umurzoqov. Katta ashula va uning jahon miqyosida tan olinishi.....	22
2-ШҲҲБА	24
Г.Я. Гревцева, Р.А. Литвак. Развитие речевой культуры студентов в процессе изучения педагогики и психологии.....	24
G.N.Aminova. Maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalar.....	26
H. Hasanov. Musiqa darslarida obrazli tafakkurni shakllantirishda fanlarning roli.....	27
N. Hasanova. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	27
M. Ismoilova. Talabalar ma'naviyatini shakllantirishda vokal o'qituvchisining o'rni.....	29
А.Қаландаров. Ибн Синонинг “Билимлар китоби” да мусиқа ҳақида.....	30
M. Nurmatova. Musiqa asarlarini tranpozitsiya qilishning dastlabki usullarini egallash yo'llari.....	31
Sh. Majitov. Yosh avlodning ongini rivojlantirishda musiqa fanining ahamiyati.....	34
У.Ю. Юлдошев. Барқамол авлодни тарбиялашда миллий мусиқий тасаввурларнинг ўзига хос хусусиятлари	35
M. Mardonova. Maktabgacha ta'lim muassasalarida didaktik o'yinli mashg'ulotlar.....	36
M. Muradov. Bўлажак мусиқа ўқитувчиларининг касбий малакаларини шакллантиришда мустақил таълимнинг ўрни.....	38
L. Pirnazarov. Yoshlarni tarbiyalashda musiqa tarbiyasining imkoniyatlari.....	39
R. Primov, J. Qayumov. Yoshlar tarbiyasida musiqaning o'rni.....	40
N. Allayarova. Hozirgi kunda barkamol shaxsni musiqiy tarbiyalash.....	41
Б. Мустафоев. Мусиқий фаолиятда интерфаол таълимнинг аҳамияти	42
U. Boliyev. Yoshlar tarbiyasini shakllantirishda zamonaviy texnik vositalarning o'rni.....	43
З. Давлатназарова. Болажонлар руҳи ва жисмига мусиқанинг таъсири.....	44
А. Ережепов. Жирволарнинг дostonни ижро этиши асосида ўқувчи-ёшларнинг маънавий тарбиясини шакллантиришнинг шакл ва усуллари	45
J. Xodjayev. Dars jarayonini faollashtiruvchi usullar va ularning ahamiyati.....	47
Д. Жомардова. Мактабгача таълимда нафосат тарбияси	48
H. Ibragimova, A. Sultonov. Musiqa san'atida pedagogik texnologiyalarning qўлланилиши	49
Ш. Камолов. Мусиқа таълими жараёнида мустақил ишларнинг самарадорлигини ошириш	50
J. Kozimov. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.....	50
Б. Курбонов, Г. Курбанова. Глобаллашув жараёнида таълимнинг ўрни	52
Қ. Рахимов. Мусиқа ўқитувчисига қўйиладиган замонавий талаблар	52
M. Kurbanova. Musiqa ta'limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.....	54
А. Одилов, Р. Набижонов. Педагогик касбий компетентлик ва унга хос сифатлар.....	55
А. Ражабов, У. Миршаев. Бўлажак мусиқа ўқитувчиларининг бадий дидини шакллантириш.....	56
Д. Рўзиев. Мусиқий таълим-тарбиянинг замонавий технологияси	58
D. Samadova. Sinfдан va maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi shakllari.....	59
Alayeva Z. Yoshlar tarbiyasida xalq musiqasining o'rni.....	60
G. Toshova, M. Sobirova. Innovatsion metodlarni qo'llashning psixologik jihatlari.....	61
G. Toshova, N. Gaybulayeva. Shaxs psixologiyasini modulli o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.....	62
Олимхўжа Каримов. Тўғарак машғулоти ҳамда концертларга тайёргарлик кўриш ва ўтказиш	63
U. Matyاقubova. “Musiqa idroki va tinglash madaniyatini shakllantirish” modulini o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.....	65
У. Ҳамраева. Бадий тўғаракларнинг маънавий-маърифий фаолиятини ривожлантиришнинг педагогик омиллари.....	68